

XVI-XVIII-ASRLARDA XIVA VA ERON MUNOSABATLARI

Erkinboyev Fozilbek Zakirjon o‘g‘li*Navoiy Davlat Universiteti Tarix fakulteti, tarix qo‘shimcha
davlat huquqi yo‘nalishi 4- kurs talabasi*

Annotatsiya: XVI–XVIII-asrlarda Xiva xonligi va Eron o‘rtasidagi munosabatlar siyosiy, iqtisodiy va harbiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu maqolada ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik aloqalar, savdo yo‘llari, chegaraviy nizolari va harbiy to‘qnashuvlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Safaviylar, Nodirshoh, Buchg'a ibn Amnak, Iskandarbek Turkman, Shoh Abbas II, "Shajarayi turk", Mang'ishloq, Mashhad, Muhammad Kozim.

XVI–XVIII-asrlarda Xiva xonligi va Eron o‘rtasidagi munosabatlar asosan harbiy ziddiyatlarga asoslangan bo‘lsa-da, iqtisodiy va diplomatik aloqalar ham muhim rol o‘ynagan. Xususan ikki davlat o‘rtasida ko‘p tarmoqli savdo ayri boshlash shuningdek elchilik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan edi. Aynan mazkur davr Xiva xonligi Eronning shimoliy viloyatlariga bosqinchilik yurishlarini amalga oshirgan, Eron esa bu hujumlarga qarshi kurashgan davr hisoblanadi.

XVI–XVIII-asrlarda Xiva xonligi va Eron o‘rtasidagi munosabatlar murakkab va dinamik bo‘lgan. Bu davrda Eron taxtida Safaviylar (1501–1736) va keyinchalik Afg‘onlar hamda Nodirshoh asos solgan Afg‘on-Eron davlati (1736–1747) hukmronlik qilgan. Xiva xonligi esa O‘rta Osiyodagi muhim siyosiy kuch sifatida Eron bilan harbiy-siyosiy to‘qnashuvlar, savdo aloqalari va diplomatik munosabatlar olib borgan.

Xiva xonligiga asos solingan dastlabki davrda Eron davlati bilan munosabatlar biroz vaqtgacha cheklanib qolgandi. Xiva xoni Buchg'a ibn Amnak (1522-1526) davrida Eron shohi Tahmasp I ikki tomonlama aloqalarni yo'lga qo'yishga harakat qildi. Chunki Bug'cha xon Xursondagi Kushon va Isfaron hududlariga yurish qilganligi sababli hatto, bu aloqalar ikki xonadon o'rtasidagi nikoh aloqalari bilan mustahkamlandi. Shoh Tahmasp Buchg'axonning akasi So'fiyonning bo'yi yetgan qizi Oysha begimga uylanishi munosabati bilan ikki davlat o'rtasida munosabatlar iliqlashadi⁵⁷. Eron shohining Xivaga to'y munosabati bilan yuborgan hadiyalari haqida Abulg'ozzi Bahodirxon shunday yozadi; "shohona hadyalarining ichida kumush bilan ishlov berilgan to'qizta xanjar, zarboftdan tikilgan hashamatli chodir (to'shagi bilan), to'qqiz ot (egari va yugani bilan), ming bo'lak kumush ipak borligini qayd qilingan"⁵⁸.

Arab Muhammad davrida taxt uchun kurashlar kuchaygan bir vaqtda uning o'g'illari Asfandiyor va Abulg'ozzi madad so'rab, Isfaxonga - shoh Abbas (1587-1629) huzuriga

⁵⁷ Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 80-bet; 325.

⁵⁸ Abulg'ozzi Bahodir "Shajarayi turk". Toshkent. Cho'lpon nashriyoti 1992. 128-bet www.ziyouz.com kutubxonasi. Turk sajarasi Riza Nur Turkiya Istanbul 1925.

borganlar. Aynan Shoh Abbas I ning munshisi bo'lgan va tarixchi Iskandarbek Turkman tarafidan yozilgan "Tarixi olam oroyi Abbosiy" asarida Xivadagi vaziyatga to'xtalib o'tgan. "Asfandiyorxonning inilari yov bo'lmishlar ular bir bo'lib otasini ta'sirsiz holga olib kelmishlar. O'g'illari otasining ko'zini ko'r qilgach xonzoda Asfandiyorxon taxtga davosidan vos kechib podshohimizga sig'indilar"⁵⁹

1648-yilda shoh Abbas II (1642-1666) saroyiga elchi yuborgan Abulg'ozi xon turkman boshliqlariga qarshi kurashda Eron betarafligini ta'minlash bilan birga, ikki davlat o'rtasida savdo va do'stlik aloqalarini mustahkamlashga erishgandi.⁶⁰ Xiva xonlari Eron bilan aloqalarni saqlab qolish, savdo-sotiq ishlarini rivojlantirishdan manfaatdor bo'lganlar. Tahlil qilingan ma'lumotlar orqali XVI-XVIII asrlarda Xiva xonligi va Eron davlatida yuz bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda uch bosqichni, ya'ni tashkil toppish, rivojlanish hamda ziddiyatlar va inqirozlar davrini kuzatish mumkin. Bu davrda ikki davlat taraqqiyotidagi o'xshash jihatlar ham, mintaqadagi umumiy vaziyat va uning ta'sir kuchi hamda ikki davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning mazmun-mohiyati haqida tushuncha beradi.⁶¹

Ipak yo'li orqali savdo: Xiva xonligi orqali Eron va Rossiya o'rtasida savdo aloqalari yo'lga qo'yilgan. Xivadan Eron bozorlariga chorva mollari, tuz, jun, shuningdek, qullar yetkazib berilgan. Eron esa Xiva xonligiga ipak, shoyi matolar, qimmatbaho toshlarni eksport qilgan. Bu ikki davlat o'rtasida qadimdan savdo aloqalari yaxshi rivojlangan bunga sabab ikki davlat chegara, qo'shni undan tashqari Buyuk Ipak yo'lida joylashganligi turtki bo'ladi. Shoh Abbas I (1588-1629) Eron hududlarini mustahkamlashga intilib, Xuroson viloyatini himoya qilish uchun harakat qilgan. Xiva xonlari esa Xurosondagi zaif joylardan foydalangan holda bosqinchilik yurishlari uyushtirgan.

Shoh Solih Muhammad (1642-1663) va Shoh Abbas II (1642-1666) davrida: Xiva xonligi va Safaviylar o'rtasidagi munosabatlar keskinlashgan. Xivalik qo'shinlar Xurosonning turli hududlariga hujum qilib turgan. Bu holat Safaviylarni mudofaa choralari ko'rishga majbur qilgan.

Eron bilan Xiva o'rtasida elchilik bordi keldilari ayniqsa Xiva xoni Asfandiyor davrida yaqol ko'zga tashlanadi, uning Eron shohi Abbas I bilan maktub va elchilar almashgan.

"Shajarayi turk"da keltirilgan ma'lumotlar XVII asrda Xorazmni Kaspiy dengizi orqali Eron, Turkiya bilan bog'lagan yo'l haqida ma'lum darajada tasavvur beradi. Jumladan, mamlakatdagi notinchliklar tufayli Turkiyaga ketgan Xiva xoni Hojimaxonning katta o'g'li o'z yurtiga qaytishdan Shirvondan- Kaspiy dengizi - Mang'ishloq - Xiva orqali o'tgan yo'ldan foydalanganligi tasvirlangan.⁶² Albatta, quruqlik va suv orqali o'tkan bu karvon yo'llari xalqlarning o'zaro iqtisodiy aloqalari, ularning madaniy yangiliklar bilan almashinuvini hamda davlatlar o'rtasidagi diplomatik kelishuvlarning muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qilgan.

⁵⁹ Iskandar Munshiy. Iskandarbek Turkman. "Tarixi olam oroyi Abbosiy" (Abbosiyning jahon ziynati tarixi)

⁶⁰ Бартольд В. В. Очерк истории туркменского народа... с. 59.

⁶¹ Allayeva N. XVI-XVIII asrlarda Xiva xonligi va Eron o'rtasidagi o'zaro aloqalar. 45-bet.

⁶² Xiva xonligi tarixi (ijtimoiy-siyosiy jihatlar) M.Mahmudov, U. Sheripov "URGANCH"-2013 39-bet

Taraqqiyotning ayrim bosqichlarida siyosiy vaziyat murakkablashishi, to‘qnashuvlarga ham olib kelgan. 1681-yilda Xiva xoni Anushaxon lashkarlari Xurosonga yurish qilib, Mashhad atrofidan 5 mingdan ortiq aholini haydab qaytdi. Asirlar yordamida Amudaryoning ko‘milib qolgan Vadoq irmog‘i asosida Shohobod kanali qazildi va uning yaqinidagi Yangi Urganch, Kotqal’a, Shohobod qal‘alarida qurilish ishlari amalga oshirildi.

1721-yilda Xiva xoni Sherg‘o‘zi Mashhagga harbiy harakat uyishtiradi va shahardagi imoratlarni vayron etib, 5 ming erkak va xotinlarni asir qilib qaytdi. Taqdir taqozosi bilan xon Xivada madrasa qurilishi ishiga jalb qilingan eronlik asirlar isyoni paytida joniga suyuqasd qilinadi va o‘sha joyda o‘liriladi. “Va Sherg‘o‘zixon qo‘y yili oftob Jadidiy burjida edi, qullari shahid qildi. Tarixi vafoti “od az g‘ulomon”dur (1726–1727). Bag‘oyat odil va fozil podshoh edi. Ilm va she‘raning zamonida rivoj topti”,⁶³ deb yozgandi muarrix Munis.

XVIII asrning 20–30-yillarida ikki davlatning chegaradosh hududlarida tez-tez harbiy to‘qnashuvlar bo‘lib turgan bo‘lsa-da, fors manbalarida keltirilgan ma‘lumotlar Nodirshoh bilan Xiva xoni Sherg‘o‘zi o‘rtasida diplomatik aloqalar bo‘lganligini ko‘rsatadi. Keyinchalik Nodirshoh Afsharning O‘rta Osiyoga keng miqyosli fathlik yurishlari ikki tomonlama munosabatlarning yomonlashuviga olib keladi olib keldi. Xiva xonligi eronliklarga Osiyoda qattiq qarshilik ko‘rsatgan davlat bo‘ldi. 1739-yil 28-oktabrda Xonqada 20 amaldori bilan birga qatl qilingan Elbarsxon II dan keyin ham, hokimiyatga intilgan mahalliy mang‘it boshliqlari Eron shohi bilan hamkorlik qilishga majbur bo‘lishgandi.

Eron tarixchisi va voqealarning bevosita ishtirokchisi Muhammad Kozimning (XVIII asr) ma‘lumotlari Xorazm aholisi tarkibida vujudga kelgan eroniylar guruhi haqida tasavvur beradi. Xususan, o‘z vaqtida Xiva hukmdorlari tomonidan asirga olinib, Xorazmning besh shahrida yashab kelayotgan barcha iroq va xurosonliklarni aniqlash hamda ozod qilish yuzasidan Nodirshohning 1745-yilda bergan buyrug‘iga ko‘ra, 5–6 mingga yaqin oila borligi aniqlangan. Shunda ular orasidan mahalliy aholi bilan bo‘lgan nikohdan tug‘ilgan kishilarni ajratib olishga qaror qilingan. Natijada otasi o‘zbek bo‘lgan, o‘z uy-joylariga ega 2000 dan ortiq kishilar aniqlanib, ular iltimosiga ko‘ra, Xorazmda yashab qolishga ruxsat berilgan.⁶⁴

XVI–XVIII-asrlarda Xiva xonligi va Eron o‘rtasidagi munosabatlar murakkab va o‘zgaruvchan bo‘lgan. Dastlab diplomatik aloqalar mavjud bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan hududiy nizolar, harbiy to‘qnashuvlar va bosqinchilik urushlari bu munosabatlarga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan. Xiva xonlari Eron hukmdorlarining O‘rta Osiyodagi ta‘sirini cheklashga intilgan, bu esa uzoq davom etgan harbiy qarama-qarshiliklarga sabab bo‘lgan. Shu bilan birga, ikki davlat o‘rtasida savdo va madaniy aloqalar ham davom etgan. Asir olingan eronliklarning Xiva jamiyatiga qo‘shilishi, ba‘zilarning mahalliy aholi bilan aralashib ketishi bu jarayonning muhim ijtimoiy jihatlaridan biri bo‘ldi. Biroq, Nodirshohning O‘rta Osiyoga yurishlari va Xiva xonligining unga qarshi kurashi mintaqadagi siyosiy vaziyatni

⁶³ Munis va Ogahiy . Firdavs ul-iqbol . 80-bet; 99.

⁶⁴ Muhammad Kazim. Name-yi alamara-yi Nadiri... T.III,c.92

yanada keskinlashtirdi. Umuman olganda, Xiva va Eron munosabatlari doimiy raqobat va harbiy to‘qnashuvlar bilan birga, diplomatik va madaniy almashinuv elementlarini ham o‘z ichiga olgan. Bu jarayon Xiva xonligining mustaqilligini saqlash yo‘lidagi kurashlari bilan ajralib turadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Munis va Ogahiy . Firdavs ul-iqbol . 80-bet; 99.
2. Allayeva N. XVI-XVIII asrlarda Xiva xonligi va Eron o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar. 45-bet.
3. Xiva xonligi tarixi (ijtimoiy-siyosiy jihatlari) M.Mahmudov, U. Sheripov “URGANCH”-2013 39-bet
4. Abulg‘ozi Bahodir “Shajarayi turk” .Toshkent. Cho‘lpon nashiryoti 1992 . 128-bet www.ziyouz.com kutubxonasi.
5. Turk sajarasi Riza Nur Turkiya Istanbul 1925.
6. Iskandar Munshiy. Iskandarbek Turkman. “Tarixi olam oroyi Abbosiy” (Abbosiyniing jahon ziynati tarixi)
7. Бартольд В. В. Очерк истории туркменского народа... с. 59.
8. Muhammad Kazim. Name-yi alamara-yi Nadiri... T.III,c.92